

**NORMA IJODKORLIGIDA “AQLLI TARTIBGA SOLISH” (SMART
REGULATION) TUSHUNCHASI VA TAMOYILLARI.**

Husanboyev Shoxjaxon

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Hozirgi kunda mamlakatimizda qator sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda shu jumladan qonunchilik sohasiga qaratilayotgan islohotlarni ham misol keltirimiz mumkin. Qonunchilik tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kozlangan masqad qabul qilinayotgan qonunlarning samaaradorligi oshirish va ularni faol jamiyat hayotiga tatbiq qilish va qonun qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik fikrini organishga qaratilgan. Aqlli tartibga solish bu norma ijodkorligi sohasiga kirib kelgan nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha mohiyati shundan iboratki norma ijodkorligi jarayonida normmativ-huquqiy hujjatalarning qabul qilinish bosqichlarini aqlli tartibga solish va bu orqali ortiqcha vaqt va mablag yoqotishga qaratilgan.

“Aqlli tartibga solish” atamasi norma ijodkorligi sohasidagi zamonaviy ilmiy manbalardan olingan. Ko'pincha "aqlli tartibga solish" norma ijodkorlari va tartibga solish ob'ektlari bilan aloqa sifatini ta'minlaydigan mexanizmlar va institutlar sifatida ta'riflanadi.

Qayd etish joizki, bu tartib xalqaro amaliyotda 1960-yillardan boshlab qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda u 60 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniya, Daniya, Frantsiya, Germaniya, Avstraliya, AQSh, Rossiya va Qozog'istonda samarali. 1980-yillarning o'rtalaridan G'arb mamlakatlarida (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya) “Yangi davlat

boshqaruvi” (yangi hukumat boshqaruvi) deb nomlangan yondashuv ishlab chiqilmoqda. 1985 yildan boshlab Avstraliyada tartibga soluvchi ta'sirni baholash (Regulatory Impact Assessment). Aqlli tartibga solish bu - ko'p yoki kamroq tartibga solish haqida emas, balki natijaga erishish, eng kam og'irlikni boshqa yo'l bilan yengishdir. Hozirga davrga kelib qonun tayyorlash sud huquq tizimida va qator tizimlarda aqlli tartibga solishni targib qilmoqda. Shu tufayli Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash togrida” PF5505-son farmoni qbul qilingan. Ushbu konsepsiyasidan kozlangan maqsad mavjuddagi kamchiliklar bartaraf etish va norma ijodkorligi jarayoniga aqlli tartib solish mexanizmlari va yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq va norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikrini organish hamda jamoatchilikni faol tarzda norma ijodkorligi jarayonlarida ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu farmonning IV-bobi “Norma ijodkorligida aqlli tartibga solish elementlarni qo'llash haqida. Ushbu bobda aqlli tartibga solish modelini jaomatchilik qatlamlarida qollash choralari haqida soz yuritiladi. Aqlli tartibga solish jarayonini qonunchilikka tatbiq etmoqchi bo'lsak e'tibor qaratishimiz kerak narsa bu axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish va qaror va qonun loyihalarini elektron raqamli shaklliga o'tkazish va va shaxs daxlsizligi va electron hujjatlar maxfiyligi xavfsizli e'tibor qaratishimiz lozim. O'zbekistonda tartibga solish ta'sirini baholash tizimi “aqlli tartibga solish”ning asosiy elementi sifatida o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega. Buni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lishimiz mumkin: Birinchi bosqich (2008-2019) - tartibga solish ta'sirini baholash tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda



qonun hujjatlarini qabul qilishda asosan tartibga soluvchi ta'sirni baholash tizimining elementlari joriy etildi. Tartibga solish ta'sirini baholash amaliyotini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhiti va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-son qarori bilan belgilangan. Prezidentning tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha ushbu tashabbusi biz ta'kidlaganimizdek, "aqli tartibga solish" sari qadam bo'ldi, chunki u qonun ijodkorligi jarayonining barcha bosqichlarida jamiyat va tadbirkorlik ishtiroki tizimi, loyihalarning tannarxini va foydasini hisoblab chiqadi, shuning uchun uni samarali olib borish muhimdir. hukumat va jamiyat taraqqiyoti uchun qonunlar.

Ikkinchi bosqich 2021-yildan hozirgi vaqtga qadar davom etib kelmoqda. M.K.Najimov, D.B.Sigankov, N.Malitsiyev kabi olimlarning fikrlari, shuningdek, Yevropa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hujjatlarini organish asosida shu ma'lum boldiki "Aqli tartibga solish" turli davlatlarda turlicha namoyon bolishi ma'lum bo'ldi. Aqli tartibga solish" modeli (konsepsiyasi)ning asosini normativ-huquqiy hujjat loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash tashkil qilganligi sababli, unga alohida e'tibor qaratilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash metodologiyasi bilan tasdiqlangan protsedura bo'lib, uni o'tkazish davomida jamiyatdagi tartibga solishning talab qilinadigan muammosi aniqlanadi, tartibga solishda mumkin bo'lgan variantlar tayyorlanadi va tahlil qilinadi, tartibga solishning ma'qul varianti aks etgan normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish va amaldagi tartibga solishni o'zgartirish maqsadga muvofiq emasligi

to'g'risida xulosa berishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish ta'sirini baholash (faktik ta'sirini baholash) normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishining haqiqiy ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qilishga qaratiladi. Xususan, mazkur bobda jamoatchilikda vujudga kelgan muammoni, davlat tomonidan tartibga solish masalalarini, tartibga solishning muqobil variantlarini aniqlash, ochiqlik variantlarining taxminiy iqtisodiy munosabatlari tahlilini tartibga solish variantini asoslash, tanlangan tartibga solish variantini amalga oshirish kabi tartibga solish ta'sirini baholash protsedurasining bosqichlarini o'rganilgan. Va bunda biz norma ijodkorligi jarayinida one-in-two out yoki one-in-one-out kabi tajribalarni koramiz. .

"Aqlli tartibga solish" konsepsiyasi dunyoning turli mamlakatlarida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan tartibga solish vositalarini joriy etishni nazarda tutadi. Tadqiqotda dissertant ushbu modelning quyidagi elementlarini alohida ko'rsatib o'tgan: normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash; bu ham normativ-huquqiy hujjat loyihasining (ex-ante evaluation), ham qabul qilingan va amaldagi normativ-huquqiy hujjatning (ex-post evaluation) baholash bo'lishi mumkin; ma'muriy soddalashtirish: jarayonlarni tartibga solishning hamda baholash: "one-in-one-out" (ya'ni, bittasi qo'shilsa, bittasi chiqadi). "One-in-two-out" (ya'ni, bittasi qo'shilsa, ikkitasi chiqadi) tartibga solish qoidalarining qo'llanishi (ushbu qoidalarning ma'nosi shundan iboratki, bunda tartibga solish ta'sirini baholash tizimi doirasida yangi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiquvchi organlar normativ-huquqiy bazani yengillashtirish maqsadida o'z aylanmasini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish chora-tadbirlarini ko'zda tutishlari lozim); norma ijodkorligida

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va bunga o'xshash ma'muriy soddalashtirish jarayonlari. Shuni ta'kidlash lozimli "aqli tartibga solish" jaroni jamiyatni barcha sohalariga tatbiq qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. См.: Купряшин Г. Л., Сарычева Н. Н. Концепция “умного регулирования”: зарубежный опыт и возможность его применения в государственном управлении России // Вестник МГУ. Серия 21. Управление (государство и общество). 2013. №
2. С. 5. 2. См.: Волкова А. В. Механизмы “умного регулирования” публичной политике современной России: расширение гражданского участия // Человек. Сообщество.
3. Stakeholder consultation on smart regulation, issued by European Commission In april 2010 // European Foundation for the Improvement of Living and Working Conditions. URL: <https://www.eurofound.europa.eu/observatories/eurwork/industrialrelations-dictionary/smart-regulation> (дата обращения: 04.02.2020).
4. Presidential decree on “Concept of improving the norm creativity”, 2018
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 15-son, 163-modda, 50-son, 589-modda; 2017-y., 2-son, 25-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son; 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972- son

